



1. Test topshiriqlarini bajaring.

O'QISH SAVODXONLIGI

I qism. Nutqiy vaziyatni tushunish. Telegram ijtimoiy tarmog'ining maslahat.uz guruhida yozilgan so'rov va unga izohlarni o'qing hamda 1 – 6-topshiriqlarni bajaring.

Qunduzoy	28-dekabr 19:15
<i>Assalomu alaykum, yaxshi insonlar. Maslahatingiz kerak: oilamizda hech kim o'qimishli emas, biroq 5 yoshli o'g'limga e-kitobdon (Kindle, PocketBook) olib bermoqchi edik. Buning bolaga zarari yo'qmi?</i>	
Malika93	28-dekabr 19:15
<i>6 yoshli o'g'limga olib bergan edik, biroq unda ko'z bilan bog'liq muammolar paydo bo'la boshladi. Menimcha, qog'oz kitoblar olib berganingiz ma'qul.</i>	
Maftuna89	28-dekabr 19:16
<i>Bolalarni 5 yoshdan chet tili to'garagiga bersa bo'ladimi?</i>	
Shukurova	28-dekabr 19:17
<i>Qizimga 4 yoshida e-kitobdon olib bergan edim, bir qancha kitoblarni eshitib chiqdi, yaqindagina kitob o'qishni ham o'rganib oldi.</i>	
Anvarjon	28-dekabr 19:18
<i>Kanalimda arzon va sifatli gadjetlar haqida ma'lumotlar berib boraman, kirib ko'ring. @gadjetuz</i>	
Doktor Alixon	28-dekabr 19:18
<i>Shifokorman, bolaga e-kitobdon olib berishning jiddiy zarari yo'q, biroq bolaning yoshiga mosini tanlash kerak. Aslo kattalarnikini olib bermang. Shuningdek, qurilmadan foydalanishini nazorat qilish, bir martada uzog'i bilan 30 daqiqadan ko'p foydalanishiga yo'l qo'ymaslik lozim.</i>	

1. [1 ball] Qunduzxon nimani bilishni xohlaydi?

- A) e-kitobdonlarning 5 yoshli bolaga zarari bor yoki yo'qligini
- B) yosh bolalarga mos e-kitobdonlar qayerda arzon sotilishini
- D) yosh bolalarga mos e-kitobdonlar haqida ma'lumot olishni
- E) 5 yoshli bolaga e-kitobdon olib berish mumkin yoki mumkin emasligini

2. [1 ball] Qunduzxon nima sababdan guruhda savol joyladi?

- A) Chunki u e-kitobdonlar haqida ma'lumot olmoqchi edi.
- B) Chunki ular oilaviy kitob o'qishga qiziqishar edi.
- D) Chunki u bolasiga e-kitobdon olib bermoqchi edi.
- E) Chunki uning o'qituvchi tanishi yo'q edi.

3. [2 ball] Qunduzxonning so'roviga guruhdagi izohlarning mos yoki mos emasligini belgilang. (Har biri uchun 0,4 ball)

T/R	Qunduzxonning so‘roviga mosmi?	Mos	Mos emas
A	Malika93 ning izohi		
B	Maftuna89 ning izohi		
D	Shukorovaning izohi		
E	Anvarjonning izohi		
F	Alixonning izohi		

4. **[1 ball]** Kim bolasiga e-kitobdon olib berish borasida salbiy tajribaga ega?

A) Shukurova B) Malika93 D) Doktor Alixon E) Maftuna89

5. **[1 ball]** Qunduzxonning savoliga Anvarjon nima maqsadda izoh qoldirgan?

A) Qunduzxonning savoliga javob berish uchun
 B) e-kitobdon haqida qiziqarli ma'lumot berish uchun
 D) Shukorovaning maslahatiga qo'shimcha qilish uchun
 E) shaxsiy xizmatlarini reklama qilish uchun

6. **[1 ball]** Qunduzxonning savoliga eng ishonchli javobni kim yozdi?

A) Shukurova B) Malika93 D) Doktor Alixon E) Maftuna89

II qism

Ilmiy-ommabop matnni tushunish. Matnni o'qing hamda 7–12-topshiriqlarni bajaring.

YULDUZLAR

Ko'plar yulduzlarni faqat tundagi osmonda miltillaydigan mayda nuqtalar deb tasavvur qilishadi. Aslida esa yulduzlar oddiy nur sochuvchi jismlar emas – ular ulkan, g'oyat issiq gaz sharlaridir. Har bir yulduz, ayniqsa, Quyosh, ichida yadro reaksiyalari sodir bo'layotgan ulkan energiya manbayi hisoblanadi. Yulduzlarda harorat juda yuqori bo'ladi. Hatto eng sovuq yulduzning harorati ham minglab darajaga yetadi. Shunday yuqori harorat tufayli ular yorug'lik va issiqlik taratadi.

“Yulduzlar qanday paydo bo'ladi?” degan savolga javob shuki, ular gaz va changdan iborat bulutlardan hosil bo'ladi. Kosmosda muayyan joylarda gaz va chang zarralari ko'p miqdorda to'planadi. Bu zarralar o'zaro tortishish kuchi ta'sirida siqila boshlaydi. Siqilish kuchaygani sari issiqlik va bosim ortib boradi. Natijada markaziy qismda yadroviy reaksiyalar boshlanadi va yangi yulduz “tug'iladi”.

Yulduzlarning ko'rinishi, ayniqsa, ranglari ularning harorati bilan bevosita bog'liq. Yulduzlar haroratiga qarab ranglarga bo'linadi. Ko'k yulduzlar eng issig'i bo'lib, ularning harorati 25 000–50 000 °C gacha yetadi. Bunday yulduzlar yosh va

energiyaga to'la bo'ladi. Sariq yulduzlar, masalan, Quyosh, o'rtacha haroratga ega — ularning harorati 5 000–6 000 °C atrofida bo'ladi. Quyoshning o'zi 5 778 °C issiqlikka ega. Qizil yulduzlar esa eng sovug'i hisoblanadi — ular keksa yulduzlar bo'lib, energiyasi kamaygan va so'nishga yaqinlashgan bo'ladi.

Yulduzlar abadiy yashamaydi. Har bir yulduzning o'ziga xos hayot davri bor. Vaqti kelib yulduzda sodir bo'ladigan o'zgarishlar tufayli u “yashashdan to'xtaydi”, ya'ni o'z faoliyatini yakunlaydi. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, Somon Yo'li galaktikasida har yili o'rtacha 2 ta yulduz so'nadi. Bu juda uzoq davom etadigan jarayon bo'lsa-da, koinotda har lahzada yangi yulduzlar tug'ilib, boshqalari so'nib bormoqda.

Agar yulduz juda katta hajmli bo'lsa, uning “o'limi” ham shunchalik dahshatli bo'ladi. Bunday yulduzlar so'nishida supernova deb ataladigan kuchli portlash sodir bo'ladi. Supernova portlashi vaqtida yulduz birdaniga million barobar kuchli porlaydi va atrof-muhitga nihoyatda katta energiya taratadi. Bu jarayon natijasida yangi elementlar paydo bo'lishi, hatto yangi yulduzlar va sayyoralar vujudga kelishi ham mumkin.

Olimlarning kuzatuvlariga ko'ra, Somon Yo'li galaktikasida har 100 yilda taxminan 2 marta supernova hodisasi yuz beradi. Bu portlashlar koinotdagi hayot siklining muhim bosqichlaridan biri sanaladi. Shu sababli yulduzlar nafaqat yorug'lik va issiqlik manbayi, balki butun koinotning tarkib topishida asosiy o'rin tutuvchi jismlardir.

7. [1 ball] Quyoshga xos xususiyatlarni belgilang.

(2 ta variantni belgilang. Har biri uchun 0,5 ball)

- A) eng keksa yulduzlardan
- B) gazlardan tarkib topgan
- D) qizil yulduzlardan
- E) o'rtacha haroratga ega yulduzlardan
- F) eng tez harakatlanuvchi yulduzlardan
- G) tog'lar va vulqonlardan iborat

8. [1 ball] Yulduzlarning rangi nimaga bog'liq?

- A) ularning massasiga
- B) ulardagi haroratga
- D) ularning joylashuv o'rniga
- E) ularning o'lchamiga

9. [1 ball] Quyidagi hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Yulduzlar galaktikada yangi asteroidlar, yulduzlar, sayyoralarning vujudga kelishida asosiy vosita.

- A) to'g'ri B) noto'g'ri

10. [1 ball] Matn mazmuniga mos hukmni aniqlang.

- A) Yulduzlarning yoshi ularning rangiga ta'sir qiladi.
 B) Supernova – yulduzning so'nish jarayoni
 D) Sariq yulduzlar sirti qimmatli ma'danlarga boy bo'ladi.
 E) Ko'k yulduzlar samoviy changlardangina iborat bo'ladi.

11. [1 ball] Matnda qaysi savolning javobi mavjud?

- A) Yulduzlar qanday ranglarda bo'ladi?
 B) Yulduzlar qanday paydo bo'ladi?
 D) Yulduzlar qay holatda so'nadi?
 E) Yulduzlar koinotdan qanday tartibda joy olgan?

12. [2 ball] Matn asosida shakllantirilgan jumalarning fakt yoki fikr ekanini aniqlang. (Har biri uchun 0,5 ball)

T/r	JUMLALAR	FAKT	FIKR
A)	Har yili o'rtacha 2 ta yulduz so'nadi.		
B)	Supernova – eng qo'rqinchli portlash.		
D)	Qizil yulduzlar harorati eng past yulduzlardir.		
E)	Quyosh eng yorqin yulduzdir.		

III qism. Tushunish ravonligi [3 ball] Jumalarni o'qing va ular hayotiy mantiqqa mos yoki mos emasligini aniqlang. (Har biri uchun 0,5 ball)

13.

T/R	Ushbu jumla mantiqiymi?	Ha	Yo'q
A)	Mashinalar elektr toki yordamida harakatlanadi.		
B)	O'quvchilar 20:00 da maktab darslariga borishdi.		
D)	Bolalar ertalab xonasini tozalashdi.		
E)	Osmonda beshta g'o'z uchib yuribdi.		
F)	Qizil mashina maktab oldiga kelib to'xtadi.		
G)	Orqadan shamol bo'layotgani sababli velosiped tutuni Sodiqning ko'ziga kirardi.		

GRAMMATIK SAVODXONLIK

14. [1 ball] Quyidagi gapda ko'pnuqta o'rniga qaysi so'z qo'yiladi?

Buning isboti sifatida aborijenlar tomonidan qoyalarda ... rasmlarni keltirish mumkin.

- A) tasvirlangan
D) chizilgan
- B) aks ettirilgan
E) bo‘yalgan

15. [1 ball] Qaysi javobdagi so‘zlarning barchasi noto‘g‘ri yozilgan?

- A) mumkun, talon-toraj, hukum
B) urchuq, tamosha, rasim
D) ustivor, pamidor, uzur
E) unsir, dekoratsiya, nutuq

16. [1 ball] Qaysi gapda asos va qo‘shimchalar imlosi bilan bog‘liq xatolik KUZATILMAYDI?

- A) Shamol tinavermagach, toqqa chiqishni qoldirdi.
B) Hozir ham ushbu nashrning mavqeyi biz tomonlarda yuqori.
D) Ikkiovlashib ishkonda uzum uzamiz, uzumlarni so‘riga tashiyimiz.
E) Oshxonangizdagi derazaning bir ko‘zi sinipti.

17. [1 ball] Qaysi javobdagi juftliklar ajratib yoziladi?

- A) shu//yerga, yangidan//yangi
D) jigar//rang, sotib//oldi
- B) to‘q//qizil, xom//semiz,
E) alla//qachon, ish//yoqmas

18. [1 ball] Qaysi javobdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llangan?

- A) qahrli **nigoh** B) qora niyat D) qiziq **holat** E) shirin **bola**

19. [1 ball] Quyidagi parchada necha o‘rinda uslubiy xatolik kuzatiladi?

Bulardan bo‘lagi seni tengdoshlaring. Ularni o‘zingdan uzoqlashtirsang yov, yaqinlashtirsang, qadrdon do‘st bo‘lishadi. Oxirginchisi – sendan kichiklar.

- A) 2 ta B) 3 ta D) 4 ta E) 1 ta

20. [2 ball] Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan vergullar soni nechta?

Mustaqillik tufayli odamlarimizning dunyoqarashi va tafakkuri, ma’naviy qiyofasi o‘zgardi jamiyatimizda ahillik muruvvat mehr-oqibat tinchlik va osoyishtalik qaror topdi.

- A) 5 ta B) 4 ta D) 3 ta E) 6 ta



2. Quyidagi jadval asosida o‘z bilim darajangizni aniqlang.

BALNI BAHOGA AYLANTIRISH JADVALI

BAHO	BALL	BAHO	BALL
“5”	21–25	“3”	9–13
“4”	14–20	“2”	0–8

YOZISH SAVODXONLIGI



3. “Kasallanganda doktor tavsiyasi asosida davolanish afzalmi yoki xalq tabobati? Mavzusida muhokama esse yozing.